O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI

“TASDIQLAYMAN”
G.Sh.Rasulova

2025-yil “30” 06

# MUTAXASSISLIKNING NAZARIY MASALALARI

## FANINING O‘QUV DASTURI

| | |
|---|---|
| **Bilim sohasi:** | 200 000 – San’at va gumanitar fanlar |
| **Ta’lim sohasi:** | 220 000 – Gumanitar fanlar |
| **Mutaxassislik:** | 70220502 – Sharq falsafasi va madaniyati |

TOSHKENT – 2025

Sharq sivilizatsiyasi va falsafa fakulteti dekani: ____________ Askarov M.M.

Sharq falsafasi va germenevtika kafedrasi mudiri: ________ Sulaymonov J.B.

ARM boshlig'i ________ Yuldasheva M.M.

| Fan/modul kodi | | O'quv yili | Semestr | ECTS - Kreditlar | |
|---|---|---|---|---|---|
| MNM1106 | | 2025-2026 | 1 | 6 | |
| **Fan/modul turi** | | **Ta'lim tili** | | **Haftadagi dars soatlari** | |
| Majburiy | | O'zbek/rus | | 6 | |
| 1. | **Fanning nomi** | | **Auditoriya mashg'ulotlari (soat)** | **Mustaqil ta'lim (soat)** | **Jami yuklama (soat)** |
| | **Mutaxassislikning nazariy masalalari** | | 72 | 108 | 180 |

2.

**I. Fanning mazmuni:**

**Fanni o'qitishdan maqsad:** - Sharq falsafasining asl milliy va ob'ektiv, umuminsoniy mohiyati va mazmuniga ko'ra jahon falsafasining qonuniy, zaruriy tarkibiy qismi ekanligi haqida bilim, ko'nikma, malakani shakllantirishdan iborat.

**Fanning vazifasi:**

- maxsus adabiyotlardan tegishli ma'lumotlarni topish va ular bilan ishlashni, tegishli mavzular bo'yicha ilmiy ma'ruza, axborot, maqola, ilmiy tahlil tayyorlash, internet materiallaridan foydalanishni, o'rganilgan sharq tilidagi yozma manbalarni tushunish, tarjima qilish hamda tahlil etishga o'rgatishdan iborat.
- "Sharq falsafasi va madaniyati" mutaxassislik yo'nalishida o'rganiladigan "Mutaxassislikning nazariy masalalari" predmeti turli tarixiy davrlarda Sharqda yaratilgan falsafiy manbalarni, ularning o'ziga xos xususiyatlarini, jahon falsafasida, shuningdek xalqimizning ma'naviy qadriyatlari tizimida tutgan o'rnini ob'ektiv va ilmiy baholashni o'rganish hamda ularning mazmun – mohiyatini tushunish, tushuntirish va tahlil eta olishga yo'naltirilgan bo'lib, gumanitar fanlar tizimida juda muhim ahamiyatga egadir.
- Sharq falsafasining ontologik, gnoseologik, metodologik va boshqa masalalarini, Sharq va g'arb falsafasining o'zaro aloqadorligi va vatan falsafasining ilmiy-falsafiy muammolarini tahlil qilishdan iborat.

**Xorij tajribasiga muvofiqligi:**

Mazkur fan dasturi xalqaro tan olingan reytinglarda birinchi top 300 talik ro'yxatga kiruvchi **Leiden universiteti** (ARWU 111) tajribasini inobatga olgan holda takomillashtirildi.

https://www.universiteitleiden.nl/en/education/masters

https://www.universiteitleiden.nl/en/education/masters/master-talks

## II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)

## II.I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:

### 1-mavzu. "Mutaxassislikning nazariy masalalari" o'quv fanining predmeti, maqsadi va vazifalari

Sharq falsafasi va uning tarixi mazkur kursning ob'ekti sifatida. Sharq falsafasida dunyoning mavjudligi va rivojlanishi, bilish usullari, mantiq, ijtimoiy hayot va inson, aksiologiya muammolari uning predmeti sifatida.

Fanning asosiy kategoriyalari va tushunchalari. Uning Sharq falsafasi bo'yicha boshqa o'quv kurslari bilan o'zaro aloqadorligi.

"Mutaxassislikning nazariy masalalari" fanning yuqori malakali magistrlarni tayyorlashdagi o'rni.

### 2-mavzu. Sharq falsafasida tarixiy va zamonaviy ilmlarning rivojlanish bosqichlari

Sharq falsafasi tarixiy rivojlanishdagi oqim, maktab va ta'limotlarning tizimi sifatida.

Hind falsafasi tarixiy rivojining xususiyatlari.

Xitoy falsafasi va uning shakllanish bosqichlari.

Uzoq Sharq mamlakatlari falsafasi.

Yaqin va O'rta Sharqda falsafiy fikr rivoji.

Markaziy Osiyoda falsafiy fikr rivojining asosiy bosqichlari.

Sharq falsafasi rivojining zamonaviy bosqichi.

### 3-mavzu. Zamonaviy Sharq falsafasidagi an'analar va yangi tendensiyalar

Sharq mamlakatlarining an'anaviy falsafiy maktablari.

Buddaviylikning falsafiy ta'limoti, uning an'analari va zamonaviy xususiyatlari.

Konfusiychilik falsafiy tizim sifatida. Bugungi kunda uning rivoji va izdoshlari.

Zamonaviy arab falsafasi.

Markaziy Osiyoda falsafiy fikrlar rivoji.

Sharq falsafasida yangi tendensiyalarning namoyon bo'lishi.

**4-mavzu. Xorijiy faylasuflarning sharq manbalari bo'yicha nazariy qarashlari**

Sharq falsafasi manbalarini o'rganishning nazariy va amaliy ahamiyati. XX asr ilmiy-tadqiqot ishlarini o'rganishning dolzarbligi. XXI asrga kelib arab va fors manbalarini o'rganishning nazariy asoslari.

**5-mavzu. Markaziy Osiyo xalqlari falsafasining metodologik asoslari**

Tarixiylik, manbalar bilan isbotlanganlik, xolisonalik, milliy va umumbashariy qadriyatlar bilan muvofiqlik, milliy g'oya talablariga moslik

**6-mavzu. Sharq falsafasida ontologiya muammolari**

Qadimgi Hind va Xitoy falsafasida olamning paydo bo'lishi va mavjudligi muammosi. Olamning asosi masalasi. Buddaviylik falsafasida negativ ontologiya g'oyasi.

Sharq falsafasi tarixida borliq va yo'qlik konsepsiyasi. Markaziy Osiyo mutafakkirlari ta'limotida "zarur-ul vujud" va "vujud-ul mumkin" muammosining qo'yilishi.

Arab falsafasida borliqning yagonaligi g'oyasi. Moddiy va ruhiy borliqning o'zaro aloqadorligi. Sharq falsafasida ruh masalasi.

Sharq falsafasidagi materialistik tendensiyalar.

Zamonaviy Sharq falsafasidagi ontologik muammolar.

**7-mavzu. Bilishning mazmun va mohiyati**

Gnoseologiya tushunchasi. "Olam va odam" tizimida dunyoni anglash, Subyekt va obyekt. "Epistemologiya" tushunchasi. Gnoseologiya va ontologiyaning uzviy bog'liqligi. Bilishning maqsadi. Bilish – dialektik jarayon. Bilish ijodiy jarayon sifatida. Bilishning o'zgaruvchanlik funksiyasi va uning ijtimoiy tarixiy jihatlari. Olamni ilmiy bilish jarayonida hissiy-empirik va ratsional - nazariy bilishning o'zaro birligi.

**8-mavzu. Gnoseologiya taraqqiyoti tarixi: Suqrot, Aflotun, Arastu, Kant, Gegel.**

Gnoseologiya falsafaning tarkibiy qismi sifatida etika, estetika va antropologiya bilan uzviy bog'liqligi. Suqrotning bilish nazariyasi va dunyoqarashi. Aflotun va Arastu bilish nazariyasi. Kantning ilmiy bilish nazariyasi. Gnoseologiyada asosiy kategoriya "haqiqat" tushunchasidir. Bilish jarayonida tajriba va amaliyotning ahamiyati. Amaliyot – haqiqat mezoni. XIX asr oxiri va XX asr boshida bilish to'g'risidagi ta'limotda empirizm, realism, sensualizm yo'nalishlarining paydo bo'lishi.

**9-mavzu. O'rta Osiyo gnoseologiyasi**

VIII-XII asrlarda inson ongi haqidagi qarashlar. Uyg'onish davri mutafakkirlarining bilish to'g'risidagi qarashlari. Tasavvufiy tafakkur. O'rta asrlardagi tafakkur rivoji. XVII va XX asr boshlaridagi bilish falsafasi.

**10-mavzu. Yangi davr gnoseologiyasi**

Ideallikning mohiyati va ta'rifining murakkabligi, uning inson hayoti, faoliyatida amal qilishi va namoyon bo'lishi kabi masalalarning barchasi bilishning murakkabligini anglatishi. Frensis Bekon qarashlari. Rene Dekartning (1596-1650) bilish falsafasi. Jon Lokkning bilish nazariyasi. Jorj Berkli ta'limoti.

**11-mavzu. G'arb falsafasida gnoseologiya muammolari**

Nemis mumtoz falsafasida bilish masalalari. I. Kant mumtoz nemis falsafasining asoschisi. Gegelning bilish nazariyasi. Iogann Gotlib Fixte (1762-1814) ning qarashlari. Fridrix Vilgelm Shellingning (1775-1854) dunyoqarashi.

**12-mavzu. Bilish nazariyasi falsafiy ta'limot sifatida**

Gnoseologiya va ontologiyaning uzviy bog'liqligi. Determinizm (sababiyatlik) tushunchasi. Hozirgi davrda tafakkur psixologiyasida "sun'iy intellekt"ning vujudga kelishi. Gnoseologiyada asosiy kategoriya "haqiqat" tushunchasi. Hissiylik (hissiyot). Mantiqiylik tushunchasi. Empiriklik va tajriba tushunchasi. Oqillik va ratsionalizm tushunchasi.

**13-mavzu. Ijtimoiy bilishning falsafiy muammolari. Ilmiy bilishda izohlash, tushuntirish va tushunish.**

Tushunishning oddiyligi, to'xtovsiz jarayon ekanligi. Tushunishni intuitsiya va idrok bilan aralashtirib bo'lmasligi. Tushunish – mantiqiy tushunchalarni ifodalashdir. Har qanday tushunish o'z-o'zini tushunishdan alohida bo'la olmasligi.

**14-mavzu. Bilishda ideallik muammosi**

Idallik muammosi antik davrda, asosan Aflotun zamonida paydo bo'lgan bo'lsa-da, XX asrda tanqidga uchragan faylasuf E.V.Illenjov tufayli jonlanishi. Ideallik individual ongning qismi ekanligidan ko'ra, ko'proq ijtimoiy ongning ajralmas qismidir. Inson faoliyatining hayvon faoliyatidan farqi shundaki, bironta ham qobiliyat nasldan-naslga o'tmaydi.

**15-mavzu. Zamonaviy gnoseologiya va uning inson hayoti uchun ahamiyati**

Hozirgi davrda gnoseologiyaning yechimini kutayotgan muhim muammolariga jahon falsafasining taraqqiyot bosqichlari, o'tmishdagi falsafiy oqimlar va maktablar ularning shu sohadagi nazariyalari va ta'limotlari. G'arb va Sharq gnoseologiyasining qiyosiy tahlili. Ijtimoiy taraqqiyotga sivilizatsion yondashuv. O'zbekiston turli sivilizatsiyalar beshigi ekanligi. Internet tarmog'ining shakllanishi va xususiyatlari.

**16-mavzu. Sharq falsafasida mantiq ilmining yuzaga kelishi.**

Mantiq Sharq falsafasining ajralmas qismi sifatida. Qadimgi Hind falsafiy maktablarida mantiqiy qarashlarning shakllanishi. Undagi realistik va norealistik epistemologiya. Xitoy falsafasida mantiqqa oid ilmlarning shakllanishi. Markaziy Osiyo falsafasida bilish va mantiqshunoslik muammolarining rivojlantirilishi. Islom falsafasida mantiq. Mantiq fani. Sharq falsafasida yanglish bilimlar haqidagi bahs – munozara.

**17-mavzu. Sharq falsafasida metod va metodologiya muammolari**

Metod va metodologiya. Metod va metodika. Metod obyektivlik va subyektivlikning birligi sifatida. Metodlarning tasnifi va metodologiya darajalari. Falsafiy metodologiya va uning universal xarakteri. Dialektika, metafizika, sinergetika.

Dialektikaning tarixiy shakllari.

Sinergetika – hozirgi zamon universal metodologiyasi sifatida. Bilish jarayonining tartibsizlikdan tartibga qarab borish, o‘z-o‘zini tashkil etish sifatida namoyon bo‘lishi.

Markaziy Osiyo falsafasida metod va metodologiya muammolari.

**18-mavzu. Sharq falsafasida ijtimoiy – siyosiy va axloqiy bilimlar**

Qadimgi Sharq falsafasi va madaniyatida – inson. Sharq falsafasida inson haqidagi ta’limotlarning ziddiyatli xarakteri.

Inson iztiroblari Hind falsafasidagi antropologik va axloqiy g‘oyalarning asosi sifatida.

Konfutsiy falsafasi jamiyat haqida. Li – axloqiy norma, tartib – qoida va ijtimoiy birlikning urf – odatlari sifatida.

Sharq falsafasida ijtimoiy birlik “dualizm”i.

Markaziy Osiyo falsafasida ideal jamiyat g‘oyasi.

Sharq falsafasida axloqiy bilimlar.

Sharq falsafasida aksiologiya muammolari.

**III. Amaliy mashg‘ulotlari bo‘yicha ko‘rsatma va tavsiyalar**

Amaliy mashg‘ulotlar multimedia qurulmalari bilan jihozlangan auditoriyada bir akademik guruhga bir professor-o‘qituvchi tomonidan o‘tkazilishi zarur. Mashg‘ulotlar faol va interfaktiv usullar yordamida o‘tilishi, mos ravishda munosib pedagogik va axborot texnologiyalar qo‘llanilishi maqsadga muvofiq.

Amaliy mashg‘ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

1. “Mutaxassislikning nazariy masalalari” o‘quv fanining predmeti, maqsadi va vazifalari
2. Sharq falsafasida tarixiy va zamonaviy ilmlarning rivojlanish bosqichlari
3. Zamonaviy Sharq falsafasidagi an’analar va yangi tendensiyalar
4. Xorijiy faylasuflarning sharq manbalari bo‘yicha nazariy qarashlari
5. Markaziy Osiyo xalqlari falsafasining metodologik asoslari
6. Sharq falsafasida ontologiya muammolari
7. Bilishning mazmun va mohiyati
8. Gnoseologiya taraqqiyoti tarixi: Suqrot, Aflotun, Arastu, Kant, Gegel.
9. O‘rta Osiyo gnoseologiyasi
10. Yangi davr gnoseologiyasi

11. G'arb falsafasida gnoseologiya muammolari
12. Bilish nazariyasi falsafiy ta'limot sifatida
13. Ijtimoiy bilishning falsafiy muammolari. Ilmiy bilishda izohlash, tushuntirish va tushunish.
14. Bilishda ideallik muammosi
15. Zamonaviy gnoseologiya va uning inson hayoti uchun ahamiyati
16. Sharq falsafasida mantiq ilmining yuzaga kelishi
17. Sharq falsafasida metod va metodologiya nazariyasi
18. Sharq falsafasida ijtimoiy – siyosiy va axloqiy bilimlar

Amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish yuzasidan kafedra tomonidan ko'rsatma va tavsiyalar ishlab chiqiladi. Unda talabalar dars jarayonida olgan bilim va ko'nikmalarini amaliy mashg'ulotlarni keyslar va organayzerlar orqali bajarish natijasida yanada boyitadilar. Shuningdek, darslik va o'quv qo'llanmalar asosida talabalar bilimlarini mustahkamlashga erishish, tarqatma materiallardan foydalanish, ilmiy maqolalar va tezislarni chop etish orqali talabalar bilimini oshirish, mavzular bo'yicha taqdimotlar va ko'rgazmali qurollar tayyorlash, foydalanish va boshqalar tavsiya etiladi.

## IV. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar

Talabalarni mustaqil ta'lim shaklini tashkil etishga qo'yilgan talablar O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 29-apreldagi 136-sonli "Oliy ta'lim muassasalari talabalari mustaqil ta'limini tashkil etish bo'yicha namunaviy tartibni tasdiqlash to'g'risida"gi buyrug'i asosida ishlab chiqilgan.

Mustaqil ta'limni baholash semestr davomida berilgan topshiriq asosida bajarilgan ishlarni HEMISga ilova qilish, shuningdek, qisman joriy, oraliq va yakuniy test va savollarga javob berish asosida oshiriladi.

**"Mutaxassislikning nazariy masalalari"** fanidan mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:

1. Sharq falsafasi va uning tarixi ilmiy tadqiqot ob'ekti sifatida.
2. Sharq falsafasi - tarixiy rivojlanishdagi oqim, maktab va ta'limotlarning tizimi sifatida.
3. Sharq falsafasi rivojining zamonaviy bosqichi.
4. Sharq mamlakatlarining an'anaviy falsafiy maktablari.
5. Markaziy Osiyoda falsafiy fikrlar rivoji.
6. Zamonaviy Sharq falsafasidagi ontologik muammolar.
7. Gnoseologiya va mantiq Sharq falsafasining ajralmas qismi sifatida.
8. Islom falsafasida bilish muammosi.

| | |
|---|---|
| | 9. Markaziy Osiyo falsafasida metod va metodologiya muammolari.<br>10. Sharq falsafasida axloqiy bilimlar.<br>11. Sharq falsafasida aksiologiya muammolari.<br>12. Zamonaviy Xorijiy Sharq falsafasida pragmatizm g'oyalari.<br>13. Faylasuf – modernistlarning madaniy nigilizmi.<br>14. O'zbekistonda falsafiy fikrlar rivojining hozirgi darajasi.<br>15. Milliy mustaqillikning falsafiy muammolari.<br>16. Darslarda kreativ pedagogik texnologiyalarni qo'llash.<br>17. Mashg'ulotlar jarayonida qo'lyozma manbalarning uslublarini qo'llash<br>18. Magistrlarning markur kursni to'g'ri o'rganish va mustaqil ta'limni tashkil etish bo'yicha uslubiy tavsiyalarni ishlab chiqish.<br><br>Talaba mustaqil ishni tayyorlashda muayyan fanning xususiyatlarini hisobga olgan holda, quyidagi shakllardan foydalanishi mumkin:<br>• darsliklar va o'quv qo'llanmalarning mavzularini o'rganib chiqish;<br>• Internet ijtimoiy tarmoqlaridan mustaqil ta'lim doirasida samarali faoydalanish;<br>• tarqatma material asosida alohida ma'ruza mavzularini o'zlashtirish;<br>• maxsus ilmiy adabiyot asosida mavzular ustida ishlash;<br>• o'quv-ilmiy-tadqiqot faoliyat bilan bog'liq mavzularni chuqur o'rganish;<br>• turli mavzularga doir adabiyotni o'qish;<br>• ta'lim olishning faol va muammoli usullari qo'llangan o'quv mashqlarni bajarish;<br>• taqdim etilayotgan mavzu bo'yicha referat, esse, maqola va testlar tayyorlash;<br>• mavzu bo'yicha slayd-prezentatsiyani tayyorlash;<br>• ilmiy ma'ruza tayyorlash va taqdimot qilish. |
| **3.** | **V. Fan o'qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)**<br>*"Mutaxassislikning nazariy masalalari" fanini o'zlashtirish natijasida talaba:*<br>- Magistrlarning mazkur ilmiy tadqiqot metodlarini egallash asosida ularda ijodiy ilmiy tafakkur va ilmiy faoliyat ko'nikmalarini shakllantirishga yo'naltirilgan. U mazkur o'quv predmetining o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqqan holda mustaqil ilmiy tadqiqot olib borishni amalga oshiradi;<br>- maqola, referat va annotatsiyalarni yozish jarayonida ilmiy usullarni to'g'ri tanlash va ilmiy tadqiqot metodlarni qo'llash malakalarini |

| | |
|---|---|
| | **tasavvurga ega bo'lishi;**<br>- fan bo'yicha adabiyotlarning tegishli bo'lim va boblarini o'rganish;<br>- kurs masaslalari bo'yicha ilmiy va uslubiy adabiyotlarni o'rganish;<br>- o'rganilgan adabiyotlar bo'yicha konspekt va tezislarning tuzilishi;<br>- ushbu fan bo'yicha bibliografiya tuzish;<br>- o'rganilayotgan mavzu bo'yicha ma'ruzalar konspekti bilan ishlash;<br>- internetda yangi ma'lumotlar qidirish;<br>- yangi o'quv texnologiyalari mustaqil egallash va elektron o'quv darsliklari bilan ishlash ko'nikmalarini hosil qilish;<br>- seminar, reyting va yakuniy nazoratga tayyorgarlik;<br>- ko'rib chiqilayotgan muammolar bo'yicha o'z nuqtai nazarini mantiqiy shakllantirish, taqdim etish va bahsli ravishda himoya qilish, o'zining g'oyaviy va ijtimoiy pozitsiyasini asoslash, olingan bilimlarni kasbiy muammolarni hal qilishda, shuningdek amaliy hayotda qo'llash **malakalariga ega bo'lishi kerak.** |
| 4. | **VI. TA'LIM TEXNOLOGIYALARI VA METODLARI:**<br>• ma'ruzalar;<br>• interfaol keys-stadilar;<br>• amaliy mashg'ulotlar (mantiqiy fiklash, tezkor savol-javoblar);<br>• guruhlarda ishlash;<br>• taqdimotlarni qilish;<br>• individual loyihalar;<br>• jamoa bo'lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalar.<br>• organayzer (Klaster, Baliq skeleti, FSMU, Bumerang, Insert, BBXB)lar. |
| 5. | **VII. Kreditlarni olish uchun talablar:**<br>Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, mustaqil ta'lim bo'yicha hamda joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha yozma ish va/yoki og'zaki imtihonni topshirish. |
| 6. | **VIII. ASOSIY VA QO'SHIMCHA O'QUV ADABIYOTLAR HAMDA AXBOROT MANBALARI**<br><br>1. Po'latova D. Qodirov M. Sulaymonov J. Sharq falsafasi va madaniyati tarixi.(1-qism) O'quv qo'llanma. –T.: Fan va texnologiya, 2018.<br>2. Po'latova D. Qodirov M. Sharq falsafasi va madaniyati tarixi: o'rta asrlar Yaqin va O'rta Sharq, Markaziy Osiyo falsafasi va madaniyati. O'quv |

qo‘llanma.–T.:TDSHU. 2021.

3. Po‘latova D. Qodirov M. va boshq. Falsafa tarixi: Sharq falsafasi. O‘quv qo‘llanma. –T.: TDSHI, 2013.
4. Po‘latova D. Koreys falsafasi tarixi. Monografiya. –T.: Istiqlol, 2018.
5. Peter Adamson. Philosophy in the Islamic World. – New York: Oxford Press, 2023.
6. Majid Fakhry. A History of Islamic philosophy. New York. 2004.
7. Henry Corbin. History of Islamic philosophy. – New York. 2014.
8. Томпсон М. Восточная философия. – М.:Гранд, 2001.
9. Po‘latova D., Ruzmatova G. G‘arb falsafasi. Darslik. – T.: EFFEKT-D, 2021.
10. Yo‘ldoshev S., Usmonov M, Karimov R. Qadimgi dunyo va O‘rta asr G‘arbiy Yevropa falsafasi. O‘quv qo‘llanma. –T.:Sharq, 2003.
11. Каримов Р. История философии. Учебное пособие. – Т.:Университет, 2021.
12. Russell B. A The History of Western Philosophy. – New York: America book-stratford press, 2010

**Qo‘shimcha adabiyotlar**

13. Mirziyoyev Sh.M.. Hozirgi zamon va Yangi O‘zbekiston. - Toshkent: O‘zbekiston, 2024.
14. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekistonda taraqqiyot strategiyasi asosida demokratik islohotlar yo‘lini qat’iy davom ettiramiz. 6-jild. - Toshkent: O‘zbekiston, 2023
15. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O’zbekistonda erkin va faravon yashaylik. 5-jild.- Toshkent: O’zbekiston, 2023.
16. Mirziyoyev Sh.M. Inson qadri, uning huquq va erkinliklari, qonuniy manfaatlari uchun. –Toshkent: O‘zbekiston, 2022.
17. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi. To‘ldirilgan ikkinchi nashri. - Toshkent: O‘zbekiston, 2022.
18. Komilov N. Tasavvuf. –T.: TDSHI, 2006.
19. Qodirov M. Markaziy Osiyo, Yaqin va O‘rta Sharqning falsafiy tafakkuri (o‘rta asrlar). O‘quv qo‘llanma. –T.: TDSHI, 2010.
20. Charles Keith Maisels. Early civilizations of the Old World. New York., 2005.
21. Yo‘ldoshev S., Usmonov M., Karimov R., Qobulniyozova G., Ro‘zmatova G. Yangi va eng yangi davr G‘arbiy Yevropa falsafasi. O‘quv qo‘llanma. – T.: Sharq, 2002.
22. Skirbekk G., Gilyo N. Falsafa tarixi. O‘quv qo‘llanma. –T.: Sharq, 2002.
23. Гриненко Г.В. История философии. Учебник. –М. :Высшее образование, 2009.

**Scopusdan maqolalar**

24. Aklan, A.K. Smoke and Fire. Sign Inference in Greek and in Indian Epistemology. *J Indian Philos* (2024). https://doi.org/10.1007/s10781-024-

09572-w
25. Chen, S. (2024). Research on the History of Chinese Philosophy and Chinese Philosophy's Creation. In: Doing Chinese Philosophy. Springer, Singapore. https://doi.org/10.1007/978-981-99-9840-1_3
26. Bonfiglioli, R. (2024). Philosophy of History, Morality and Human Beings. In: Human Nature, Mind and the Self in Adam Smith's Moral Philosophy. Palgrave Macmillan, Cham. https://doi.org/10.1007/978-3-031-56779-7_6
27. Ohashi, R. Nishitani Philosophy as the Breakthrough (*Durchbruch*) of Nishida Philosophy. *Journal East Asian Philosophy* 3, 19–37 (2024). https://doi.org/10.1007/s43493-023-00028-1
28. Šadić, R. (2024). Philosophy of Religious Pluralism – An Islamic Perspective. In: Koçyigit, I., Yağdı, Ş. (eds) Interreligiöse Hermeneutik in pluralen Gesellschaften. Wiener Beiträge zur Islamforschung. Springer VS, Wiesbaden. https://doi.org/10.1007/978-3-658-44523-2_10
29. Stepien, R.K. Prolegomena to a Buddhist philosophy of religion. *Int J Philos Relig* 94, 63–89 (2023). https://doi.org/10.1007/s11153-023-09867-0
30. Gabsi, Z. (2024). Sufism: Is it the Alternative Face of Islam?. In: Muslim Perspectives on Islamophobia. Palgrave Macmillan, Cham. https://doi.org/10.1007/978-3-031-57300-2_7

Axborot manbalari

31. www. lex.uz.
32. www.gov.uz.
33. www.library.ziyonet uz.
34. www.faylasuf.uz.
35. http://booksss.ru философия//Slovar_Philosof.rar
36. http://filosof.historic.ru/books/c0016_1.shtml
Степанянц М.Т. Восточная философия.Учебное пособие.– М.:Восточная литература РАН. –2002
30. http://filosof.historic.ru/books/c0016_1.shtml
37. Фролова Е.А. История средневековой арабо-исламской философии: Учебное пособие. – М., 2001
38. http://znanium.com/ философия. Счастливцева Е.А. История философии. Учебное пособие. –Киров: Изд-во ВятГГУ, 2014.
39. http://znanium.com/ философия. Зотов А.Ф. Современная западная философия: учеб пособие. –М. : Проспект, 2012.
40. http://yanko.lib.ru/books/philosoph/reale_antiseri-1-2_tom-antic-srednevekovie-2003-8l.pdf Антисери Д., Реале Дж. Западная философия от истоков до наших дней. В четырех томах. Перевод.С.А.Мальцева. –С-Петербург:Пневма, 2002.
41. http://rutracker.org/forum/viewtopic.php?t=3562401 Рассел Б. История западной философии. В двух книгах. –М.: Миф, 2010.
42. http://filosof.historic.ru/books/c0016_1.shtml
43. Алексеев П. В. История философии: учеб. для студ. вузов, изучающих философию. –М. : Проспект, 2012.

| | |
|---|---|
| 7. | Fanning o'quv dasturi "Sharq falsafasi va germenevtika" kafedrasi tomonidan ishlab chiqilgan va 2025 yil "25" 06 dagi 20-sonli bayonnomasi bilan ma'qullangan.<br><br>Fanning o'quv dasturi Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti Kengashining 2025 yil "28" 06 dagi 11 - sonli bayoni bilan tasdiqlangan. |
| 8. | **Fan/modul uchun mas'ullar:**<br>**M. Qodirov** –TDSHU, «Sharq falsafasi va madaniyati» kafedrasi professori, falsafa fanlari nomzodi, dotsent.<br>**Sh.S. Jurayev** – TDSHU, "Sharq falsafasi va germenevtika" kafedrasi katta o'qituvchisi, PhD. |
| 9. | **Taqrizchilar:**<br>**Karimov R.R.** – UzMU "Falsafa tarixi va mantiq" kafedrasi professori, f.f.n.;<br>**Saydaliyeva N.Z.** – TDSHU, "Sharq falsafasi va germenevtika" kafedrasi dotsenti, f.f.n. |